

O'ZBEK TILI TARIXIY FONETIKASIGA OID TADQIQOTLAR

Asqaraliyeva Dilshoda

Namangan davlat universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy fonetika, uning o'ziga xos xususiyatlari, bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar, uning shakllanishi va taraqqiyoti masalasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: diaxron tilshunoslik, sinxron tilshunoslik, umumiy fonetika, xususiy fonetika, eksperimental fonetika.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы исторической фонетики, её характерные особенности, проведённые в этой области исследования, а также проблемы её формирования и развития.

Ключевые слова: диахронная лингвистика, синхронная лингвистика, общая фонетика, частная фонетика, экспериментальная фонетика.

Annotation: This article analyzes the issues of historical phonetics, its distinctive features, the research conducted in this field, and the problems of its formation and development.

Keywords: diachronic linguistics, synchronic linguistics, general phonetics, specific phonetics, experimental phonetics.

Borliqdagi barcha narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, rivojlanishdadir. Bundan aloqa vositasi bo'lgan til ham mustasno emas. Tildagi ana shu dialektik taraqqiyotni e'tiborga olgan F.de Sossyur uni ikki holatda: 1)sinxron va 2) diaxron aspektida o'rganishni tavsiya etgandi.

Sinxroniya uzluksiz rivojlanishda, o'zgarishda bo'lgan ma'lum tilning muayyan bir davrdagi holatini, tarixiy uzluksiz rivojlanish zanjirining bir xalqasini aks ettiradi. Shuning uchun har qanday statika (sinxroniya) dinamikaning bir uzvi sanaladi.

O'zbek tilini sinxron planda o'rganarkanmiz, uning uzluksiz jarayondan «uzib» olinishi nisbiy xarakterga egadir. O'zbek tilining hozirgi holati ajdodlarimiz foydalanib kelgan umumxalq tilining davomi, ayni paytda, kelajak avlodga ham o'tib borayotgan umumiy jarayondir. Shunday ekan, ma'lum bir tilni sinxron holatda o'rganish qanchalik zarur bo'lsa, uning tarixiy taraqqiyotini o'rganish ham shunchalik katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun o'zbek tilini sinxron o'rganish bilan birgalikda diaxron tadqiqotlar ham olib borildi. Bu sohada S.Mutallibov, G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, A.M.Shcherbak, S.N.Ivanov, O.Usmon, Sh.Shukurov, E.Umarov, B.Hasanov, H.Ne'matov, E.Fozilov, H.Dadaboev, A.Matg'oziev, S.Ashirboyev,

B.Bafojev, Q.Mahmudov, Q.Karimov, F.Ishoqov, M.Qodirov kabi olimlarning xizmatlari katta.¹

Ma'lum bir tilning tarixiy grammatikasini va tarixini yaratish faqat shu tilga doir yozma manbalarni chuqur o'rganish orqaligina amalga oshirilishi mumkin. SHuning uchun 50 – 60-yillardan boshlab qadimgi turk va eski o'zbek tiliga doir yozma manbalarni nashr qilishga, bu manbalarning til xususiyatini o'rganishga e'tibor qaratildi.

Tilning tovush sistemasini o'rganishda qo'yilgan vazifalariga ko'ra fonetikaning a) umumiy fonetika, b) tarixiy fonetika, v) qiyosiy fonetika, g) tavsifiy fonetika, d) eksperimental fonetika kabi turlari ajratiladi.

Umumiy fonetika turli tipdagi tillarning nutq tovushlarining xilma-xilligini o'rganuvchi bo'lim. Umumiy fonetika sifat jihatdan turli tillarda inson nutq apparatining tovush hosil qilish imkoniyatlarini, nutq organlari yordamida tovushlarni hosil qilish usullari va ulardan nutqda foydalanish imkoniyatlarini o'rganish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. U alohida va qarindosh tillarning fonetik sistemasini batafsil va chuqur o'rganish hamda natijalarni umumlashtirish asosida hosil qilinadi. Demak, tillarning fonetik xususiyatlari qanchalik chuqur va izchil o'rganilsa, umumiy fonetika uchun manba shunchalik boy bo'ladi.

Tarixiy fonetika ma'lum bir tilning tovush sistemasini tarixiy rivojlanishda o'rganadi, ya'ni til taraqqiyotining turli davrlarida tovush sistemasidagi tarixiy o'zgarishlarni, ularning o'zgarish sabablarini tekshiradi. Jonli so'zlashuv nutqi, qarindosh tillar tadqiqi natijasida olingan natijalar, til taraqqiyotining turli davrlariga mansub yozma yodgorliklar tarixiy fonetika uchun manba bo'ladi.

Qiyosiy fonetika qarindosh tillarning tovush sistemasi munosabatlarini o'rganadi. Masalan, turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi, slavyan tillarining qiyosiy fonetikasi kabi.

Tavsifiy fonetika yoki fonologiya ma'lum bir til taraqqiyotining ma'lum bir davri oralig'idagi tovush sistemasini o'rganish bilan shug'ullanadi. Ilmiy-tavsifiy fonetika tovushlar dinamikasi bilan ham shug'ullanadi, u tilning fonetik sistemasini hosil qilishda til tarixini chetlab o'tmaydi.

Tavsifiy fonetika tovushlarni quyidagi aspektlarda o'rganadi:

-fiziologik (nutq tovushlarining nutq organlari yordamida hosil bo'lishi – tovushlar fiziologiyasi);

-akustik (o'z sifatlari bilan eshitish taassurotlariga ta'sir etish – nutq tovushlarining akustikasi);

¹ Нурмонов А. Танланган асарлар. –Т.: Академнашр, 2012, 2–жилд, 427–бет.

-lingvistik (soʻzlarning semantik differentsiatsiyasida tovushlarning oʻrni). Aloqa vositasi sifatida uchinchi aspekt asosiy hisoblanib, fonetikani lingvistika tarkibiga qoʻshadi.

Eksperimental fonetika nutq tovushlarining fiziologik va akustik xususiyatlarini turli xil asbob-uskunalar yordamida oʻrganadi. Tekshirishning ushbu usuli nutq tovushlarining alohida belgi-xususiyatlarini aniq belgilashga imkoniyat yaratadi.

Tarixiy fonetika oʻzbek tili unli va undosh tovushlarining turli davrlardagi taraqqiyoti, har bir taraqqiyot davri uchun xos boʻlgan fonetik sistema, ayrim unli va undosh tovushlarning shakllanishi va tadrijiy taraqqiyoti, asosiy fonetik qonuniyatlar, boʻgʻin tuzilishidagi tarixiy oʻzgarishlar kabi qator masalalarni oʻrganadi va oʻrgatadi.

Fonetik sistema tilning qurilish (struktur) birliklari orasida oʻzining oʻzgaruvchanligi bipan leksikadan keyin ikkinchi oʻrinda turadi. Buning sababi shundaki, tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari, tashqi muhit: qoʻshni tillar, jamiyat va fan–texnikaniyag rivoji, yangi–yangi soʻzlarning kirib kelishi tilning fonetik qurilishiga tez taʼsir qiladi,

Tilimiz tarixining qadimgi davr xususiyatlarini oʻrganishni amaliy ravishda boshlab bergan Mahmud Koshgʻariy qadimgi va eski turkiy til fonetik xususiyatlarini ham atroflicha yoritib bergan. M.Koshgʻariy oʻz davri turkiy til shevalarini solishtirar ekan, ular oʻrtasidagi fonetik differentsiatsiyaga (farqlanishga, ajralishga) eʼtibor qiladi. Sharqiy Turkistondagi qarluq qabilalari ittifoqiga kirgan chigillar haqida shunday misollar keltiradi: ayaq – azax, qarin toʻydi – harin tuzdi. Bunda y-z tovushlari mosligini taʼkidlamoqda. Shuningdek, M.Koshgʻariy oʻz davri unlilarini qadimgi turkiy tilning barcha manbalariga xos boʻlganidek, qator, tor-kenglik, lablanish-lablanmaslik belgilariga koʻra farqlagan. Keyingi davrda qadimgi turkiy til davri yozuv yodgorliklarining fonetik xususiyatlarini oʻrganish V.Tomsen, V.V.Radlov, H.Vamberi P.M.Melioranskiy, V.Bang, kabi olimlar tarafidan yangi bosqichda davom ettirildi. Qadimgi turkiy til manbalarining fonetik-grammatik xususiyatlarini oʻrganishda A.M.Shcherbak, V.G.Kondratev, A.S.Amanjолоv, N.K.Antonov, G.Aydarov, D.M.Nasilov, A.Gaben, H.N.Orkun, A.J.Emre, T.Tekin, oʻzbek olimlaridan Gʻ.Abdurahmonov, A.Rustamov, E.Fozilov kabilarning katta ilmiy xizmatlari bor. Oʻzbek tili tarixiy fonetikasini oʻrganishda V.V.Radlovning eski oʻzbek tili yodgorliklari fonetikasi boʻyicha ishlari, K.K.Yudaxinning "Chigʻatoy tilining fonetik sostavi haqida materiallar" (1929), A.K.Borovkovning "Alisher Navoiy - eski oʻzbek tilining asoschisi" (1946); "Badoe ul–lugʻat". Toile Imoniy Xiraviyning Navoiy asarlariga lugʻati (1961), A.M.Shcherbakning "Navoiy tili", "X-XIII asr Sharqiy Turkiston turkiy matnlari tilining grammatik ocherki, (1961), "Eski oʻzbek tili

grammatikasi" (1962), "Turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi" (1970) kabi asarlari bu o'rinda alohida qayd etilishi lozim.²

O'zbek tilshunoslarining o'zbek tili tarixiy fonetikasi bilan qiziqishlari 60-yillardan keyin kuchaydi. Professorlar F.Abdullayev, G'.Abdurahmonov, A.Rustamov, X. Doniyorov eski o'zbek tili unli va undoshlari sistemasi, ayrim fonetik hodisalar bo'yicha qator ilmiy ishlarni nashr ettirdilar va Alisher Navoiy asarlari ma'lumotlari asosida eski o'zbek tili unlilari tizimi ustida tadqiqot ishlari olib bordilar. Q. Mahmudov XII asr yodgorligi "Hibatul-haqoyiq" asarining fonetik xususiyatlarini o'rganib chiqdi. Hozirgi o'zbek tili unli va undoshlarining shakllanish tarixini V.V.Reshetov o'zining "O'zbek tili. I qism. Kirish. Fonetika" (1959) kitobida atroflicha yoritdi.

Tilshunos va matnshunos E.A.Umarov Toile` Xiraviy, Mirza Mehdixon va Kohariy lug'atlari asosida XV, XVII va XIX asrlarda o'zbek tili unlilariga oid muhim kuzatishlarini umumlashtirib e'lon kildi. G.Abdurahmonov va A. Rustamovlarning o'zbek tilida birinchi marta nashr etilgan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun "Qadimgi turkiy til" (1982) qo'llanmacida turkiy tillar uchun mushtarak bo'lgan O'rxun-Enasoy yodgorliklarining fonetik xususiyatlari atroflicha bayon etildi.

O'zbek tili tarixiy fonetikasini o'rganishda XI-XV asrlar yozma yodgorliklarining mukammal transkripsiya asosidagi ilmiy nashrlarini amalga oshirgan E.Fozipov, S.Mutallibov, K.Yunusov, M.Ziyoeva, A.I.Chaykovskaya va boshqalarning xizmatlari juda katta. Bu olimlar va o'zbek shevashunoslarining ilmiy ishlari o'zbek tili tarixiy fonetikasini umumlashtirishga zamin yaratadi.

O'zbek tili fonetikasining taraqqiyotida Abdurauf Fitratning hissasi katta bo'ldi.

Abdurauf Fitrat zamonasining yetuk mutafakkiri sifatida Sharq va Ovrupo tilshunoslarining qo'lga kiritgan yutuqlaridan boxabar bo'ldi. Uning fonetik qarashlari o'zbek imlosiga bag'ishlangan bir qator maqolalarda va «O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf» asarida o'z ifodasini topgan.

Olim fonema va uning variantlari o'rtasidagi munosabatni yaxshi anglaydi. Har qanday fonema real talaffuz qilinganda yondosh tovushlar ta'sirida turli o'zgarishlarga uchrashi mumkinligi, lekin ularning hammasi bir umumiy fonemaning vakillari ekanini payqaydi. Avvalo, o'zbek tili fonemalarini akustik-artikulyatsion xususiyatiga ko'ra ikki katta guruhga bo'ladi: unlilar va unsizlar. Bu o'zaro zidlangan atamalar fonemalarning akustik belgisiga ko'ra tasniflanishini juda to'g'ri aks ettiradi. Sof undan iborat bo'lgan fonemalar unlilar, ovozga ega bo'lmaganlar esa unsizlardir. Akustik jihatdan un belgisiga ko'ra bu ikki sinf ikki qutbni tashkil qiladi (bu jihatdan sonorlar birinchi guruhga mansub bo'lgani holda ikki qutb orasida uchinchi alohida bir guruh bo'lib qoladi). Shuning uchun bunday sharoitda ikkinchi belgi – artikulyatsion

² Нурмонов А. Танланган асарлар. –Т.: Академнашр, 2012, 3–жилд, 105–бет.

belgi ham yordamga keladi. Unlilar «ogʻiz ochuvchilar» boʻlsa, unsizlar talaffuz jarayonida maʼlum toʻsiqqa uchraydi. Bu belgiga koʻra sonorlar ham, jaranglilar ham unsizlar tarkibiga kiradi.

Shunday qilib, Fitrat tomonidan unliga qarama-qarshi qoʻyilgan sinfning unsizlar deb yuritilishi fonemalarning un belgisiga koʻra zidlanishini juda toʻgʻri aks ettirdi.

Keyinchalik oʻzbek tilshunosligiga rus tilshunosligining taʼsiri natijasida rus tilshunosligidagi «soglasnye» atamasi aynan tarjima qilinib, undoshlar atamasi bilan yuritila boshlandi. Afsuski, bu atama un belgisiga koʻra undan iborat boʻlgan unlilarga qutbiy zidlanuvchi uni boʻlmagan tovushlar guruhiga emas, balki ikki qutb oʻrtasida turuvchi jaranglilar mohiyatiga toʻgʻri keladi.

Fitrat oʻzbek adabiy tilida 23 ta unsiz fonema mavjudligini koʻrsatadi. Ular quyidagilardan iborat: b, l, t, ch, j, x, d, r, z, s, sh, g, f, k, k, g, n, l, m, n, v, x, y. Ulardan x, h, f fonemalari asl turkcha soʻzlarda kam uchrashi, shuning uchun ham ular asl turkcha emasligini taʼkidlaydi.³

Fitrat oʻzbek tili unlilar tizimi masalasida ikki xil fikr yuritadi. 20-yillar boshlaridagi til-imlo qurultoyida soʻzlagan nutqida oʻzbek tilida oltita unli fonema mavjudligi haqida fikr yuritib, «Sarf» asarida toʻqqizta unli haqida bahs qiladi.

Fitrat oʻzbek tilini turkiy tillar tarkibidagi bir til sifatida barcha turkiy tillarda u yoki bu darajada mavjud boʻlgan singarmonizm qonuniyatini aks ettirishini, bu holat esa shahar shevalarida fors-tojik tilining taʼsirida buzilganini, shuning uchun umumturkiy fonetik xususiyatini koʻproq saqlab qolgan qishloq shevalariga tayanish juda toʻgʻri ekanini taʼkidlaydi. Ana shu asosda oʻzbek tilida unlilarning «yoʻgʻon» lik va «ingichka»lik belgisi farqlovchi belgi vazifasini bajarishi va shu belgiga koʻra unlilar ikki qatorga boʻlinishini koʻrsatadi:

yoʻgʻon (orqa qator)	ingichka (old qator)
a	e
oʻ	ö
u	Y
ы	i

Shu bilan birga, yoʻgʻon-ingichkalik belgisi boʻyicha farqlanishga ega boʻlmagan «e» unlisining ham mavjud ekanini, jami oʻzbek tilida 9 unli fonema borligini bayon qilali.

Singarmonizm qonuniyati soʻz yasalishi va soʻzlarning morfologik shakliga ham taʼsir etishini, shu qonuniyat taʼsirida qoʻshimchalar ham yoʻgʻon va ingichka variantlarga ega boʻlishi, yoʻgʻon variant yoʻgʻon oʻzaklarga, ingichka variant esa ingichka oʻzaklarga qoʻshilishi, shu asosda ohangdoshlikning amal qilishi haqida

³ Фитрат А. Танланган асарлар.—Т.: Маънавият, 2009, 142–бет.

to'xtaladi. Masalan, *sin-* o'zagi yo'g'on bo'lgani uchun unga qo'shimchalarning ham yo'g'on varianti qo'shiladi: *sing'an*, *sinmoq*, *siniq* kabi; *min-* o'zagi ingichka bo'lgani uchun unga qo'shimchalarning ingichka varianti qo'shiladi: *mingan*, *minmak*. Fitrat singarmonizmli shevalarga ko'proq e'tibor berganidan o'zbek tilidagi lablanmagan, keng «o» fonemasini mustaqil fonema sifatida e'tiborga olmaydi. Demak, *ota*, *ona*, *opa*, *oz*, *och* singari so'zlarning oldida kelgan fonema o'zbek tilining fonemasi sifatida qaralmaydi. Natijada *bor-bar*, *bos-bas* singari so'zlardagi unli fonemalarning farqlovchi belgilari amalda rad etiladi.

Fitrat o'zbek tili fonologik tizimidagi fonemalar nutq jarayonida bir qancha variantlar orqali namoyon bo'lishini, nutq jarayonida turli fonetik o'zgarishlar ro'y berishini ko'rsatadi. «Sarf»da «tovush o'zgarishlari» sarlavhasi ostida fonetik hodisalarning bayon qilinishi o'sha davr tilshunosligi uchun katta voqea edi.⁴ Unli va undosh tovushlar tizimining taraqqiy etishi jarayoni H. Ne'matovning "O'zbek tilining tarixiy fonetikasi" asarida atroflicha tadqiq etilgan.⁵

Demak, o'zbek tilining tarixiy fonetikasining taraqqiyotida ko'plab fonetist olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur olimlarning izlanishlarida adabiy tilning turli tarixiy davrlaridagi fonetik o'zgarishlar va hodisalar chuqur tahlil qilinganining guvohi bo'ldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: Академнашр, 2012.
2. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Т.: Академнашр, 2012.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3-жилд. – Т.: Академнашр, 2012.
4. Фитрат А. Танланган асарлар. –Т.: Маънавият, 2009.
5. Неъматов Х. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1992.

⁴ Нурмонов А. Танланган асарлар. –Т., 2-жилд, 2012 йил, бет.

⁵ Qarang: Ne'matov X. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1992.